INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY

# PROFESSIONAL TA'LIMNING DUAL TA'LIM SHAKLIDA KADRLAR TAYYORLASHDA AVSTRALIYA TAJRIBASI

**R.M.Botirov**
*PTRI, bosh mutaxassisi*

**J.M.Og'aliqov**
*"TIQXMMI" MTU, magistranti*

***Annotatsiya***. *Maqolada Avstraliya professional ta'lim tizimi tuzilishi, shuningdek dual ta'lim shakli bo'yicha o'rta bo'g'in kadrlar tayyorlash bo'yicha tajribasi, ushbu mamlakatdagi dual ta'lim shaklining o'ziga xos rivojlanish bosqichlari yoritilgan*.

***Kalit so'zlar.*** *Avstraliya, dual ta'lim, kvalifikatsiya, ta'lim tizimi, daraja, ta'lim dasturlari, professional ta'lim, ish beruvchi, ta'lim muassasa.*

Avstraliya ta'lim tizimi xususan professional ta'lim tizimi ham Buyuk Britaniya, AQSh ta'lim tizimi bilan hamohang tashkil qilingan [1]. Aholining o'rtacha yosh ko'rsatkichlari yuqorilab borayotgani, sanoat va ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish sohalarida ishchi kuchiga talabni yuqoriligi bois ham o'rta-bo'g'inda kadrlar tayyorlash davlat va jamiyatning doimiy e'tiborida. Professional ta'limni rivojlantirish borasida Avstraliya hukumati tomonidan alohida rivojlanish konsepsiyasi ishlab chiqilgan. Umuman olganda Avstraliyada professional ta'limni yangi bosqichga olib chiqishga doir ishlar 1983-yildan boshlangan va hozirgi kungacha jadal davom etmoqda. Professional ta'lim tizimini yanada samarali, muvaffaqiyatli va mukammal qilish rejalashtirilmoqda. Ayniqsa Avstraliyada ta'lim dasturlarini sifatiga alohida e'tibor qaratishadi. Hozirgi vaqtda Avstraliyada professional ta'lim tizimi ko'p sonli o'rta bo'g'in kvalifikatsiyalarni va sezilarli o'xshashliklarga ega mikro-kredit ma'lumotlarini o'z ichiga oladi. Avstraliyada 4000 dan ziyod davlat va nodavlat ta'lim muassasalari, sanoat sektori vakillari, ishlab chiqaruvchilar, xizmat ko'rsatish sektori vakillari hamda boshqa yuridik shaxslar o'rta bo'g'in kadrlar tayyorlovchi sifatida ro'yxatdan o'tishgan[2]. O'rta bo'g'in kadrlar tayyorlash sifati Avstraliya malakalar sifati boshqarmasi (ASQA) va shtatlar ta'lim bo'limlari orqali nazorat qilib boriladi. Avstraliya professional ta'lim tizimining hajmi va qamrovi xilma-xildir. Birgina 2017-yilda 4 milliondan ortiq kishi professional ta'lim tizimida tahsil olgan. Jumladan, 1,2 million kishi davlat tomonidan moliyalashtiriladigan professional ta'lim tizimida tahsil olgan. Biroq, ko'pgina professional ta'lim talabalari to'liq kurslarga emas, balki nisbatan qisqa kurslarga yoki kompetensiyasini oshirish kurslarinigina tamomlaydi. U tasdiqlangan 56 ta milliy o'quv dasturlari paketlarini, 1200 dan ortiq

kvalifikatsiyalar, 1500 ga yaqin bilim va 15400 malaka ko’nikmalari birligini mujassamlashtirgan. Kamida bitta boshqa ko’nikma bilan 70% mos keladigan 5000 dan ko’nikma, birliklari mavjud. Avstraliya o’rta bo’g’in kadrlar tayyorlashning dual ta’lim tizimi borasida ham Germaniya, Shvetsariya, Avstriya, AQSh kabi dunyoning rivojlangan davlatlari qatorida turadi. Yashil qit’a o’quvchilari va ish qidirayotgan insonlar orasida ko'proq dual ta’lim olishga ishtiyoq kuchli. Sababi dual ta’lim mashg’ulotlari o’quvchilar va ish qidirayotganlarga yangi ishga o'tish uchun mavjud ko'nikmalarini oshirishga yordam beradi. Ushbu muhim sohadagi har qanday innovatsion o’zgarishlar va islohotlar sohaning o'ziga xos ehtiyojlarini hisobga oladi. Avstraliyada, mehnat bozorida kerak bo'ladigan ko'nikmalarga e'tibor qaratish orqali o’quvchilarga ko’proq foyda keltirishga harakat qilinadi, ularning amaliy ko'nikmalarini ko’proq oshirish maqsadida mashg’ulotlar asosan ish joyiga o'tkaziladi. Professional ta’lim tizimidagi bu usul esa ish beruvchilarni osonroq tushunish, ularning muammolarini o’rganish ta’lim muassasa va ish beruvchi o’rtasida integratsiyani doimiy ravishda olib borishda imkon beradi. Bundan tashqari, bu murakkab va batafsil talablar bilan shug'ullanadigan ta’lim tadqiqotlari markazlari va o'quv tashkilotlari uchun ham foydali bo'ladi. Avstraliyada o'qitish tizimi samarali va dinamik bo'lishi, bu sohalarga xos ko'nikmalari va tarmoqlararo uzviyligi mavjud bo’lgan, shaxsning oldingi tajribasi, ko'nikmalari va bilimlariga ega ekanligini tan oladigan tizim yaratilgan. Bundan odamlarning hayot davomida ta'lim olishlari hamda ularni ish bilan ta'minlashni qo'llab-quvvatlaydigan, kasb-hunar ta'limi tizimini rivojlantirish maqsad qilingan. Shuningdek xodimlarning kasbiy faoliyati davomida malakasini oshirish va ular tarkibini yangilab borish ham ustuvor masala sanaladi [3].

Avstraliyadagi milliy malaka ramkasi ham xuddi O’zbekistonnikiga o’xshash lekin biroz farqli tomonlari ham bor. U boshlang’ich o’rta va o’rta maxsus bo’g’in kadrlar tayyorlashga bo’linadi. Avstraliyada 1 dan 6-darajagacha bo’lgan kvalifikatsiyalarga kichik mutaxassislar tayyorlash sifatida qarashadi. 5-6-darajadagi yo’nalishlarni tugatganlarga bevosita universitet darajasini tugatganlar sifatida qarashadi va diplom beriladi. 1-4 darajadagi kvalifikatsiyani tugatganlarga

Kvalifikatsiyalar, 1500 ga yaqin bilim va 15400 malaka ko’nikmalari birligini mujassamlashtirgan. Kamida bitta boshqa ko’nikma bilan 70% mos keladigan 5000 dan ko’nikma, birliklari mavjud. Avstraliya o’rta bo’g’in kadrlar tayyorlashning dual ta’lim tizimi borasida ham Germaniya, Shvetsariya, Avstriya, AQSh kabi dunyoning rivojlangan davlatlari qatorida turadi. Yashil qit’a

INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY

o’quvchilari va ish qidirayotgan insonlar orasida ko'proq dual ta’lim olishga ishtiyoq kuchli. Sababi dual ta’lim mashg’ulotlari o’quvchilar va ish qidirayotganlarga yangi ishga o'tish uchun mavjud ko'nikmalarini oshirishga yordam beradi. Ushbu muhim sohadagi har qanday innovatsion o’zgarishlar va islohotlar sohaning o'ziga xos ehtiyojlarini hisobga oladi. Avstraliyada, mehnat bozorida kerak bo'ladigan ko'nikmalarga e'tibor qaratish orqali o’quvchilarga ko’proq foyda keltirishga harakat qilinadi, ularning amaliy ko'nikmalarini ko’proq oshirish maqsadida mashg’ulotlar asosan ish joyiga o'tkaziladi. Professional ta’lim tizimidagi bu usul esa ish beruvchilarni osonroq tushunish, ularning muammolarini o’rganish ta’lim muassasa va ish beruvchi o’rtasida integratsiyani doimiy ravishda olib borishda imkon beradi. Bundan tashqari, bu murakkab va batafsil talablar bilan shug'ullanadigan ta’lim tadqiqotlari markazlari va o'quv tashkilotlari uchun ham foydali bo'ladi. Avstraliyada o'qitish tizimi samarali va dinamik bo'lishi, bu sohalarga xos ko'nikmalari va tarmoqlararo uzviyligi mavjud bo’lgan, shaxsning oldingi tajribasi, ko'nikmalari va bilimlariga ega ekanligini tan oladigan tizim yaratilgan. Bundan odamlarning hayot davomida ta'lim olishlari hamda ularni ish bilan ta'minlashni qo'llab-quvvatlaydigan, kasb-hunar ta'limi tizimini rivojlantirish maqsad qilingan. Shuningdek xodimlarning kasbiy faoliyati davomida malakasini oshirish va ular tarkibini yangilab borish ham ustuvor masala sanaladi [3].

Avstraliyadagi milliy malaka ramkasi ham xuddi O’zbekistonnikiga o’xshash lekin biroz farqli tomonlari ham bor. U boshlang’ich o’rta va o’rta maxsus bo’g’in kadrlar tayyorlashga bo’linadi. Avstraliyada 1 dan 6-darajagacha bo’lgan kvalifikatsiyalarga kichik mutaxassislar tayyorlash sifatida qarashadi. 5-6-darajadagi yo’nalishlarni tugatganlarga bevosita universitet darajasini tugatganlar sifatida qarashadi va diplom beriladi. 1-4 darajadagi kvalifikatsiyani tugatganlarga

| **Beriladigan hujjat:** | **Davomiyligi:** | **Egallaydigan malakasi (misol tariqasida):** |
| --- | --- | --- |
| I-darajali Sertifikat | 4 oydan 6 oygacha | Vakolatli operator |
| II-darajali Sertifikat | Taxminan 1 yilgacha | Ilg'or operator |
| III-darajali Sertifikat | Taxminan 1 yil | Malakali savdogar yoki texnik |
| IV-darajali Sertifikat | 12 oydan 18 oygacha | Supervayzer |
| Diplom | 18 oydan 24 oygacha | Paraprofessional |
| Ilg'or diplom | 24 oydan 36 oygacha | Kichik menejer |

1-4 darajagacha bo'lgan malaka sertifikati beriladi. Birgina 3-darajani o'zida 114 kvalifikatsiya mavjud. Ularning soni ish beruvchilar va mehnat bozori talablaridan kelib chiqib o'zgarib turishi mumkin. Ko'plab kasblarga o'qitish va qayta tayyorlash kvalifikatsiyasini oshirish sohalarida dual ta'lim tizimi joriy qilingan bu esa o'z navbatida ish beruvchilarga ham munosib, iqtidorli ishchi kuchini o'zida jalb qilish imkoniyatini yaratgan. Avstraliyada barcha ta'lim dasturlari va hujjatlari kasb standartlariga o'xshash "vakolat birliklari" deb nomlanuvchi o'zida kasbga qo'yiladigan talablarni mujassamlashtirgan hujjatlar majmuasi asosida yaratiladi. Mavjud tizimning asosi bo'lgan vakolat birliklari ko'pincha murakkab va juda batafsil sanoat kontekstlari va ish beruvchining talablarini o'z ichiga olgan yuqori darajada belgilangan hujjatlardir. Misol tariqasida, 4-darajadagi oshpazlik kasbining "vakolat birliklari" 100 sahifadagi 700 dan ortiq talablardan iborat [4]. Birliklarda jihozlarning uzoq ro'yxati ham mavjud bo'ladi. Bunga sabab esa Avtraliyada o'rta bo'g'in kadlar tayyorlashda asosan dual ta'lim shaklidan foydalaniladi va asosiy urg'u amaliy mashg'ulotlarga qaratiladi.

**References:**


1. R. M. Botirov., Sh. M. Jo’raboyev. Professional ta’lim tizimida jahon tajribasi va uni yurtimizda rivojlantirish istiqbollari. “Harbiy muhandislarni tayyorlashda umumtexnika fanlarining roli va dolzarbligi” mavzusidagi o’tkazilgan Respublilka Ilmiy-uslubiy konfrensiya materiallar to’plami. CHOTQMBY.; 296-298 betlar, 2022 y
2. TrIthaca Group (2018) Credit Pathways in VET and Higher Education: Research Report Department of Education and Training
3. https://docs.education.gov.au/node/51846
4. Lamb, S. and Huo, S. Counting the costs of lost opportunity in Australian education. Mitchell Institute report No. 02/2017. Mitchell Institute, Melbourne. Available
5. http://www.mitchellinstitute.org.au/reports/costs-of-lost-opportunity/
6. https://www.studyaustralia.gov.au/en/plan-your-studies/vocational-education-and-training.